



**“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI TARKIBIDAGI MAKTUBLARNING
VAZNI –MAZMUN IFODASIDAGI ASOSIY OMILLARDAN BIRI SIFATIDA**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.046>

B.Abdurahmonova

Qo‘qon DU dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi maktublarning vazn xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Layli va Majnun yozishmalari, Navfalning Laylining otasiga yozgan xatlari misolida hajazi axrab bilan hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf (ruknlari va taqte’si – -- – / – V – /V - - Mafyvlun / foiylun / fayvlun) vazn o‘lchovining maktublardagi variatsiyasi borasidagi ayrim qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: aruz, bahr, vazn, variatsiya, imola, vasla.

Аннотация. В данной статье рассматриваются весовые характеристики писем в эпической поэме Алишера Навои «Лейли и Маджнун». Некоторые взгляды на изменение веса писем в переписке Лейли и Маджнуна, а также в письмах Навфала к отцу Лейли, выражены на примерах hijazi akhrab и hazaji musaddasi akhrami ashtari mahzuf (ruknlari va taqte'si – --∩ – / – V – /V - - Mafyvlun / foiylun / fayvlun).

Ключевые слова: aruz, bahr, вес, изменение, imola, wasla.

Abstract. This paper examines the weight characteristics of letters in Alisher Navoi's epic poem "Layla and Majnun." Some perspectives on the changes in letter weight in the correspondence between Layla and Majnun, as well as in Nawfal's letters to Layla's father, and expressions using examples of Hijazi akhrab and Khazaji musaddasi akhrami ashtari mahzuf (columns and board - --∩ - / - V - /V - - Mafywlun / foylun/faywlun).

Keywords: aruz, bahr, weight, change, imola, wasla.

A.Hojiahmedov “Mumtoz shoirlarimiz she’riyatida hayot va jamiyat, inson va muhabbat, shoir taqdiri, hijron alamlari haqidagi teran falsafiy mushohadalar vazmin, salobatli vaznlar vositasida ifodalansa, mahbuba tavsifi, oshiqning ehtirosli kechinmalari yengilroq, jozibador ohangdagi baytlarda mujassamlashtiriladi, vafo va sadoqat tantanasi esa sho‘x va o‘ynoqi ritmga asoslangan misralarda tarannum etiladi”¹⁵-deb yozgan edi. Aruzshunos olimning ayni bu fikrlari Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoniga ham daxldor. Doston aruzning hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (rukni va taqte’si

¹⁵Хожиахмедов А. Фуркат арузи. Фуркат ижодиёти. –Т.: Фан, 1990. –Б. 83.

maf‘uvlu, mafoilun, fauvlun – – V / V – V – / V – –) o‘lchovida yaratilgan. Hajazninhg lug‘aviy ma‘nosi („yoqimli ovoz qilish“) bahri mafoiylun asli asisoda hosil qilinadi. Bu vaznda yaratilgan she‘riy asarlarda qahramon ruhiyatidagi mahzunlik, g‘amkinlik hamda xursandchilik asar ishtirokchilarining voqea rivojidadagi holatiga qarab o‘rni-o‘rni bilan ifoda etiladi:

Ul o ra / zi dil ra bo / g‘a tush gay,

– – V / V – V – / V – –

Jon bir la / ko ‘ngul ba lo / g‘a tush gay.

– – V / V – V – / V – – ¹⁶

Mazkur keltirgan baytimizning birinchisida “orazi” so‘zidagi “zi”, ”dilrabog’a” jumlasidagi “g’a”, ”balog’a”dagi “g’a” bo‘g‘ini o‘zidan keyingi ruknga o‘tgan. Boshqa o‘rinlarda so‘zning oxiri bilan ruknning tugashi to‘la mos keladi. So‘zning bo‘linishi birinchi misradagi “orazi”, ”dilrabog’a” ikkinchi misradagi ”balog’a” so‘zlarida uchraydi. Aniqrog‘i, keltirilgan birinchi misradagi so‘zlar o‘zidan keyingi hijoga birlashib ikkita ruknni ya‘ni mafoilun, fauvlun ruknini, ikkinchi misrada esa bitta ruknni mafoilun ruknini tashkil etgan. Quydagi baytda ham qahramonning ko‘tarinki kayfiyati emas, balki uning holatidan sahrodagi vahshiy hayvonlar ham hayratda ekanligi tasviri berilgan. Mazkur baytning ikkinchi ruknida imola hodisasi uchraydi. Imola – aruz atamalaridan bo‘lib, vazn taqozosi bilan tarkibida cho‘ziq unli bo‘lgan ayrim yopiq hijolarni, unlini cho‘zib talaffuz qilish hisobiga, o‘ta cho‘ziq hijo qilib o‘qishni ifodalaydi:

Maf‘uvlu / mafoilun / fauvlun

Hay rat da vu hu sh(i) vah / sha tim dan,

– – V / V – V – / V – –

Meh nat da tu yu r(i) meh na tim din

– – V / V – V – / V – – **(178-bet).**

Birinchi baytning ikkinchi ruknida kelgan “vuhush” va “tuyur” so‘zlari tarkibidagi “hush” va “yur” hijolari o‘ta cho‘ziq hijo bo‘lgani bois ular bir cho‘ziq (--)va bir qisqa hijoga(V) ajratiladi. Quydagi baytning ikkinchi misrasi birinchi ruknida ham imola hodisasi uchraydi:

Yo‘q-luq ma | nga gar y-rub | tu-rur yo‘l,

– -- V | V – V – | V – –

Sen bo r(i) | bo ‘lu bu yo‘q | qa yor o‘l

– -- V | V – V -- | V – – **(181-bet).**

“Dostonda bu vazn bilan birga qo‘shimcha tarzda hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf (ruknlari va taqte’si – -- – / – V – /V – - Mafyvlun / foiylun /fayvlun) qo‘llanganini kuzatishimiz mumkin. Bu holat tasodifiy bo‘lmay, doston mazmuni va g‘oyasi

¹⁶ Navoiy A.Xamsa. Yettinchi jild.T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2012.She‘riy parchalar shu manbadan olingani bois ularni keying o ‘rinlarda qavs ichida ko ‘rsatamiz.

bilan chambarchas bog‘liq. Dostondagi 3623 baytdan 240 misra aynan mana shu ritmik variatsiya (bir vaznning ichki imkoniyatlar asosida yangi variantlarga ega bo‘lishi)da yaratilgan bo‘lib, dostondagi ziddiyatli voqealar, asar qahramonlarining chuqur ruhiy iztiroblari tasviri, qahramonlar ruhiyatining tabiat tasviri bilan bog‘liq bayoni, qahramonlar hayrati aks etgan misralar, lirik chekinish paytida mazkur variatsiyaga murojaat qilinganligini ko‘ramiz. A. Hojiahmedov ushbu holatni “...aruz ilmiga xos bir qonun – ikki qisqa hijoning bir cho‘ziq hijo bilan almashtirilishi mumkinligi asosida ro‘y bergan” deb hisoblaydi ¹⁷-deydi navoiyshunos olim D. Yusupova. Bu holatni quyidagi bayt misolida ko‘rishimiz mumkin:

Dash tuz ra chu vah sha tim to pib tul
– -- V/ V – V – /V – –
G‘am topib vah sh, bal qo chib g‘ul
– -- --| -- V – | V – – **(178-bet).**

Keltirilgan baytda hazaji musaddasi axrabi maqbuza mahzuf o‘lchovi bilan hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf (ruknari va taqte’si – -- – / – V – /V – – Mafyvlun / foiyun /fayvlun) rukni variatsiya sifatida qo‘shaloq qo‘llangannini kuzatish mumkin. Olima variatsiya hodisasini quyidagi holatlarda kuzatilishini quyidagicha izohlaydi: “...doston qahramonlarining chuqur ruhiy holatlari bilan bog‘liq. Muallif ziddiyatli voqealar va qahramonlarning ruhiy iztiroblari bayonida ritmik variatsiyaga murojaat qiladi;

- ritmik variatsiyada mahzun tuyg‘ularni ifodalash imkoniyati kengroq, misralarning 4 ta cho‘ziq bo‘g‘in bilan boshlanishi ohangning hazin chiqishiga olib keladi;

- qahramonlar nomi keltirilgan misralar;
- qahramonlar kayfiyatini peyzaj vositasida ochish bilan bog‘liq misralar;
- qahramonlarning iztirobli holatlari aks etgan misralar:

-Navoiy o‘z dostonining fojiaiy yakuni to‘g‘risidagi fikri”¹⁸. D. Yusupovanning tasnifi asosida quyidagi she’riy parchalarni namuna sifatida keltiramiz:

1. Baytdagi misralarning 4 ta cho ‘ziq hijo bilan boshlanishi misralarni hazing ohangda o‘qilishini talab qiladi:

Go‘-yo-sav | do yo ‘-lim | ni ur-di,
– -- - | -- V – | V – –
Hu-shum-ni | Ju-nun-e- li | so-vur-di.
– -- V | V – V – | V – – **(180-bet).**

2. Majnun Layliga yozgan maktubida doston qahramonlarining nomlari aks etgan misralarda shoir variatsiyaga murojaat qilganini ko‘rish mumkin. Biroq bu keltirilgan she’riy parchada asar qahramonlaridan birining homi aniq ifodalanmagan esa-da, Majnun Layli tomonidan Navfal bilan bo‘lib o‘tgan voqeani eslatganidan hayratga tushgan holati tasvirini

¹⁷Yusupova D. O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish davri adabiyoti (Alisher Navoiy davri). T.: Tamaddun. 2016. B. 140.

¹⁸Yusupova D. Istiqlool davri o‘zbek navoiyshunosligi. O‘ttiz jildlik. T.: Tamaddun. 2022. B. 53.

ifodalashda shoir varitatsiyaga murojaat qilgan. She‘riy baytning birinchisi hajzaji axrabga, ikkinchisi bayti hajazi axrami ashtar o‘lchiviga misol qilib keltirilgan.

Sa - do a | ro bo‘l mi sho‘y | la maf-tun,
- -- V | V - V - | V - -
Kim, el-de | re-mish-la- ro | ni “Maj-nun”
- -- V | V - V - | V - - **(138-bet).**

Al loh -Al | loh bu ne | ba lo dur,
- - - | - - V - - | V - -
Kim rish ta | ni der ki aj | da ho dur **(179-bet).**
- -- V | V - V - | V - -

Qahramonlar nomi keltirilgan galdagi baytda esa ikkinchi misraning birinchi va ikkinchi ruknlarida variatsiya kuzatiladi: baytda ikkinchi misraning birinchi rukni “maf’uvlu” ni emas,”maf’uvlun”, ikkinchi rukni “mafoilun”ni emas,”foilun” ruknini hosil qilgan

Mun- dog’ da | g’i de-di-lar | fa-so-na,
- -- V | V - V - | V - -
Kim,Nav-fal | la bo‘- lub | ya-go-na.
- -- - | - - V - - | V - - **(173-bet).**

Ba‘zan qahramon nomi boshqa bir sifatlar bilan berilganda ham shu holatni kuzatish mumkin. Baytning ikkinchi misrasi birinchi rukni uchta cho‘ziq hijoga (axrab axramga), ikkinchi ruknida (mafoilun rukni foilun) rukniga almashadi Taqte’ quyidagi ko‘rinishni oladi:

De vo na | me ney pa ri | si fat hur,
- -- V | V - V - | V - -
Ma‘zu r dur | ul ki tut | sa ma‘zur
- -- - | - - V - - | V - - **(181-bet).**

Alisher Navoiy qahramonlar kayfiyatini peyzaj vositasida ochish bilan bog‘liq misralarda ham variatsiya kuzatiladi. Bu qahramon axvolini yanada oydinroq tasvirlash imkonini beradi:

G’am za’-fi | da dash-t(i) uz | ra yot-sang,
- -- V | V - V - | V - -
Qum bis-ta | re-kin a-yog’ | u-zot-sang.
- -- V | V - V - | V - - **(171-bet).**

Olima D. Yusupovaning tasnifining to‘rtinchisi Alisher Navoiy o‘z dostonining fojiaiy yakuni to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bayt misralarida ham variatsiyani kuzatilishidir.“Layli va Majnun”dostonining XXVI bobida Laylining maktubi keltirilgan.Majnun maktubni o‘qib tugatguncha tanasida majol qolmaydi, bemor kishiday zaiflashadi. Bir ilojini qilib, Majnun Layliga javob xati yozadi va Zayd orqali xatni berib yuboradi. Mana xatni o‘qiyotgan Laylining tasviri:

Chun sol di | sa vo di g’a | na zar tez,

– – V | V – V – | V – –

Bu nav’ bo‘ | lub e di | gu har rez.

– – – | – V – | V – – (174-bet).

Dostonda bunday tasvirlarning berilishida hajazi axrab va hajazi axrami ashtar ruknining almashlanib qo‘llanishini A.Hojiahmedov “...aruz ilmiga xos bir qonun” deb hisoblaydi va bunda, albatta, qisqa hijolar miqdori bilan cho‘ziq hijolar miqdori e‘tiborga olish o‘rinli”¹⁹ degan xulosani beradi.

Aruzshunos D.Zohidova ham bu ilmiy fikrlarni qo‘llab-quvvatlaydi va doston vazhi haqida shunay deydi:”Ushbu vaznda Sharq she‘riyatida Layli va Majnun mavzusidagi dostonlar yozilgan. Aruzda ikki qisqa hijoningbir cho‘ziq hijoga teng kelishi mumkinligi qoidasiga binoan yuqoridagi vaznning hazaji musaddasi axrabi mahzuf(maqsur) bilan bir qatorda hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf (maqsur) variant ham mavjud bo‘lib, u asosan katta hajmli lirik-epik janrlar-dostonlar , tarkibida ayrim o‘rinlarda keladi (rukni va taqte’si maf’uvlu, mafoilun, fauvlun – – V / V – V – / V– –) va bir baytda ikkala vazn o‘lchovi qo‘shaloq holda qo‘llanish holatlari uchraydi”²⁰.

Darhaqiqat olimaning ilmiy xulosalarini xususan,Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida berilgan Laylining Zaydga qilgan quyidagi nolalari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Maf’uvlu, mafoilun, mafoiyl

Bu no ma | ki qil di jon | ni be tob,

– – V | V – V – | V – ~

Yoz moq qa |ja vo b(i) yuq | tu ras bob (174-bet).

– – V | V – V – | V –

Quyidagi baytlarda muallif Majnunning maktubi vositasida uning iztiroblarini ifodalashda hajazi axrabning mahzuf va maqsur ko‘rinishiga murojaat qiladi:

Kim ko‘z ki, | o‘ yil g’a yer | di bu kosh, (177-bet).

– – V | V – V – | V – ~

Ne ko‘z ki, | ke sil g’a yer | di bosh

– – V | V – V – | V – ~

Maf’uvlu, mafoilun, fauvlun

Fik ret sa |me di bu nav’| o‘ zum ni,

– – V | V – V – | V – --

Ko‘r et ga | ye dim i ki | ko‘ zum ni

– – V | V – V – | V – --

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llagan hajaz bahrining axrab va axrami ashtar ruknlari adabiyotshunos olimasi D.Yusupova

¹⁹ Hojiahmedov A. Ўзбек арузи луғати. –Тошкент: Шарқ,1998.

²⁰ Zohidova D.Aruz saboqlari.o‘quv qo‘llanma.T.: Muharrir.2012.B42-43.

ta’kidlaganidek:”variatsiya asosida yaratilgan hajaz bahrining axrab va axram o‘lchivida bitilgan misralarni bayt mazmuniga hamda muallif g‘oyasidan kelib chiqib tahlil etish doston mazmuni bilan variatsiya orasida o‘zaro uyg‘unlik borligini ko‘rsatadi”²¹.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy A.Xamsa.Yettinchi jild.T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2012
- 2.Хожиаҳмедов А.Ўзбек арузи луғати. –Тошкент: Шарқ, 1998.
- 3.Yusupova D.Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. O‘ttiz jildlik. T.:Tamaddun.2022
4. Qayumov A.Asarlar, 1-jild, 2-kitob.T.:Mumtoz so‘z.2008
5. Zohidova D.Aruz saboqlari.o‘quv qo‘llanma.T.: Muharrir.2012

²¹ Yusupova D.Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. O‘ttiz jildlik.T.:Tamaddun.2022.B.55.